

Jadidlar izidan – 25

Test kodi: 129941

@e_test1_bot ga

Namunada: 129941*abcd..... dek
jo'natib javoblaringizni tekshiring

1. Cho'lpon qaysi gazetasi tahririyatida ishlashi, uning professional jurnalistik faoliyati boshlanishini shundan belgilash joiz? (12-bet)

- A) Turkestanskiy golos B) Sadoyi Turkiston
C) El bayrog'i D) Sadoyi Farg'ona

2. Kim sadoqatni shunday ta'riflaydi:

"Sadoqat bir fayzi ma'naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidir..." (55-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
B) Munavvar qori Abdurashidxonov
C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

3. 1991-yil O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingandan so'nggina kimga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatila boshlandi. Abdulla Qodiriy **Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti va "Mustaqillik" ordeni** bilan taqdidandi. (15-bet)

- A) Abdulhamid Cho'lpon
B) Is'hoqxon To'ra Ibrat
C) Abdulla Qodiriy
D) Mahmudxo'ja Behbudiy

4. 1918-yili kimni Munavvarqori yangi tashkil etilgan Turkiston Xalq dorilfununiga taklif etadi va u yangi o'quv yilidan Adabiyot va faisafa sho'basi (kafedrası)ni boshqaradi.

O'zbek tilida ilk darslik "Ona tili" (Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hammualliflikda)ni nashr qildiradi. (10-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
B) G'ulom Zafariy
C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

5. 1917-1918-yillarda kim "Ishchilar dunyosi" jurnalida bo'lim mudiri bo'lib isHlaydi va Muxtoriyat g'oyalarini faol targ'ib etadi. (8-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
B) G'ulom Zafariy
C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

6. Ba'zi bir johil mutaassiblar kimning maktabida an'anaviy o'qitish usullaridan ancha farq qiladigan, Yevropa va rus maktablari qo'llanayotgan tovush usulidan foydalanganligi uchun diniy-islomiy an'anani buzish hisoblab, **"kofirlar maktabi"** deb e'lon qildilar va xalq bolalarini bu maktabdan qaytarishga harakat qildilar, hatto general-gubernatorlik ma'murlari yordamida yoptirdilar? (13-bet)

- A) Is'hoqxon To'ra Ibrat
B) Mahmudxo'ja Behbudiy
C) Abdurauf Fitrat
D) Munavvar qori Abdurashidxonov

7. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Qaysi jurnalning birinchi sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqola bilan chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va fransuz tilini bilish shart deb hisobladi? (13-bet)

- A) Hurshid B) Turon C) Oyina D) Xuriyat

8. Kim yanada oldinga qadam tashlab, birinchi bo'lib, ikki yillik "Rushdiya" jadid maktabini ochib, hozirgi milliy dunyoviy o'rta maxsus ta'limga asos soldi. (13-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
B) Munavvar qori Abdurashidxonov
C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

9. Kim qishloqlilardan "Ovrupo mo'dasi ga uchmaslikni o'tinadi: *"Ovruponing mo'dasi va buzuq axloqi sizlami xonavayron, beuatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!" deb takidlaydi? (63-bet)*

- A) G'ulom Zafariy B) Abdulhamid Cho'lpon
C) Is'hoqxon To'ra Ibrat D) Abdurauf Fitrat

10. Kimning shaxsiy arxivida **“Po'rtugaliya inqilobi”** nomli bir dramatik asari bor. U adibning boshqa asarlaridan ajralib turadi. 5 parda 10 ko'rinishli bu asarni muallif fo- jia (tragediya) deb atasada, mazmuniga ko'ra u qahramonlik dramasiga yaqin. (73-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy B) G'ulom Zafariy
C) Abdurauf Fitrat D) Abdulla Avloniy

11. Quyidagilardan qaysi biri dastlab 1921-yilda **“Sharq chechagi”** jurnalida bosiladi? (40-bet)

- A) Juvonboz B) Jinlar bazmi
C) Shodmarg D) Uloqda

12. A. Fitraning qaysi asarida Allohga qarshi ateistik fikrlar mavjud emas. Oxirzamondagi suhbat real hayot voqealarini takror eslatadi? (45-bet)

- A) “Qiyomat” hikoyasida
B) “Qabrdan keyingi hayot”
C) “Jannatga sayohat”
D) “Bayonoti sayyohi hindi” qissasi

13. “Bilim o'chog'i” jurnalining 1923-yil 2-3-sonlarida bosilgan kimning **“Chig'atoy-o'zbek xalq teatri”** maqolasi esa o'zining ilmiyligi, isbot va dalillarga boyligi bilan ajralib turadi? (101-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy B) G'ulom Zafariy
C) Abdurauf Fitrat D) Abdulla Avloniy

14. Kim 1907-yildayoq o'z maktabiga rus tilini o'quv predmeti sifatida kiritgan, rus va nemis tillarini mukammal biluvchi tatar maorifchisi Husayn Makayevni rus tili o'qituvchisi etib tayinlagan? (89-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
B) Is'hoqxon To'ra Ibrat
C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

15. Kimning kitobi jildiga **“Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag ishlanadi”** degan yozuv bitilgan? (52-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy B) G'ulom Zafariy
C) Abdurauf Fitrat D) Abdulla Avloniy

16. 1920-yilda kimni Buxoro sho'ro hukumatiga yordam berish niqobi ostida surgun qilinadi. Shunda Abdurauf Fitrat uni quchoqlab, **“Biz bunday inqilobni xohlama- gan edik. Rusiyada bir balo bosh kutardi. Bu bolsheviklar balosidir”** deb ho'ng-ho'ng yigdaydi? (52-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
B) Munavvar qori Abdurashidxonov
C) Abdulhamid Cho'lpon
D) Abdulla Avloniy

17. **“Behbudiya kutubxonasi”** va **“Nashriyoti Behbudiya”** nechanchi yillar orasida faoliyat olib bordi? (73-bet)

- A) 1902—1910 B) 1906—1912
C) 1904—1905 D) 1908—1915

18. Qaysi shoir **“Xush keldingiz”** radifli g'azalida ma'shuqaning ajoyib surati va siyratini shunday tasvirlaydi: (147-bet)

*Savbo'yliq, xushqadam, ra'nosifat,
xush keldingiz,*

*Yunshing tovu kibi, bamosifat,
xush*

keldingiz.

Lablaring shahd-u shakar, oq tishlaring

durdonadur,

*Ko'zlaring bodomitar, laylosifat,
xush keldingiz.*

- A) Abdulhamid Cho'lpon
B) Is'hoqxon To'ra Ibrat
C) Abdurauf Fitrat
D) G'ulom Zafariy

19. Kim 1922-yil **“Inqilob”** jurnalida **“Sharq kuylari va cholg'ulari”** maqolasini e'lon qiladi?

- A) Abdulhamid Cho'lpon
B) Is'hoqxon To'ra Ibrat
C) Abdurauf Fitrat
D) G'ulom Zafariy

20. **“Temur sag'anasi”, “O'g'izxon”, “Abo Muslim”, “Begijon”** kabi dramalar kimning qalamiga mansub? (48-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
B) G'ulom Zafariy

- C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

Tayyorladi: Nomozov Nurbek
25.10.2024

21. Doktorlik dissertatsiyasi yozgan **Xristofor Maykl Murfi qaysi** adibni romanlariga “struktural adabiyotshunoslik uslubi bilan” yondashdi – deb ta’rif beradi? (113-bet)

- A) Abdulla Qodiriy
B) Is’hoqxon To’ra Ibrat
C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

22. Kim 1909-yilda “**Jamiyati xayriya**” ochdi va mahalliy xalq bolalarining o’qib bilim olishi uchun pul yig’ib, maktablarga tarqatdi. (7-bet)

- A) Mahmudxo’ja Behbudiy
B) Munavvar qori Abdurashidxonov
C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

23. Kim 1920-yilda “Turon” teatri direktori vazifasida ishlaydi. Shu vaqtda yana O’zbek ilmiy hay’ati raisi sifatida ham faoliyat olib borgan. 1921-1922-yillarda “Buxoro axbori” gazetasi muharriri, bir muddat Buxoro jumhuriyati davlat nashriyoti mudiri bo’lib turgan? (19-bet)

- A) Abdurauf Fitrat
B) Is’hoqxon To’ra Ibrat
C) Abdulhamid Cho’lpon
D) G’ulom Zafariy

24. “Tong”, Buxoroda chop etilgan “Buxoroyi sharif”, “Turon” va “Buxoro axbori” gazetalari kimning tahririda chiqqan?

- A) Mahmudxo’ja Behbudiy
B) Munavvar qori Abdurashidxonov
C) Abdurauf Fitrat
D) Abdulla Avloniy

25. Kim o’zining “Ehtiyoji millat” nomli maqolasida shunday deb yozadi: “...Dunyoda turmoq uchun dunyo-yoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo’lur” (78-bet)

- A) Abdulla Avloniy
B) Abdurauf Fitrat
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Mahmudxo’ja Behbudiy